XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-oktabr VI-150-117-7-105-K/24 Urgut tumani

Urgut tumanida 2024-2025-yillarda sug‘orish davri uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman “Suv yetkazib berish xizmati” Davlat muassasasining 2024-yil 23- sentyabrdagi 01/33-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, navbatdagi bir yuz elliginchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qaror ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Urgut tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktori R.Usmonovning Urgut tumanida 2024-2025-yillarda sug‘orish davri uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin va 1-5-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Urgut tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi direktoriR.Usmonovga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori asosida ishlarni tashkil etish;

belgilangan limitlar asosida iste’molchilarga suv yetkazib berish;

o‘ziga biriktirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish;

sug‘orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash, ta’mirlash-tiklash tadbirlarini amalga oshirish;

suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisoboti yuritilishini raqamlashtirish;

iste’molchilar kesimida iste’mol qilingan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga taqdim etib borish;

suv iste’molchilarining buyurtmanomasi asosida boshqa suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobotlarni o‘z vaqtida berib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Ashrapov) va tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Z.Amonov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

XUDAYKULOV
SHERALI
UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2024-yil 24-oktabrdagi
VI-150-117-7-105-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Urgut tumanida 2024-2025 yillarning kuzgi-qishki mavsumida iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan cheklangan suv miqdori (limit).
(2024-yil 1-oktabrdan 2025-yil 31-martgacha)

mln.m3

T/r	Tuman nomi	2024 yil sug‘orish mavsumiga olinadigan cheklangan suv miq-dori	Shu jumladan							
			Sug‘orishga	Sanoat, komunal xo‘jaligi va boshqa extiyojlar uchun	shu jumladan					
					Energetika		Sanoat	Kommunal xo'jaligiga	Baliqchilik	Boshqalar
					Jami olina-digan suv	Kayta ril-masdan ishlatila digan suv				
1	Urgut	30,30	29,75	0,6			0,20		0,20	0,20
Jami		**30,30**	**29,75**	**0,55**			**0,20**		**0,20**	**0,20**

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2024-yil 24-oktabrdagi
VI-150-117-7-105-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Urgut tumanida 2024-2025 yillarning kuzgi - qishki mavsumida suv manbalaridan olinadigan cheklangan suv miqdori (limit). (2024-yil 1-oktabrdan 2025-yil 31-martgacha)

mln.m3

t/r	Tuman nomi	Jami cheklangan suv miqdori	shu jumladan manbalardan			
			Zarafshondan	Soy va buloqlardan	Yer osti suvlaridan	Kaytadan ishlatiladigan (zovur)
1	Urgut	30,3	28,9	1,4		
Jami		**30,3**	**28,9**	**1,4**		

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining
2024-yil 24-oktabrdagi
VI-150-117-7-105-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Urgut tumaniga 2024-2025-yillardagi nosug‘orish mavsumda sug‘orish va sanoat ehtiyojlari bo‘yicha cheklangan suv (limit)

TAQSIMOTI

m3/sek

№	Tuman nomi	Ko‘rsatkichlar	oktabr			noyabr			dekabr			yanvar			fevral			mart			hajmi, mln m3
			I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	
1	**Urgut**	**jami**	**4,30**	**4,35**	**4,04**	**3,68**	**2,92**	**1,95**	**0,57**	**0,52**	**0,52**	**0,52**	**0,47**	**0,47**	**0,86**	**0,95**	**1,58**	**1,88**	**2,16**	**2,86**	**30,30**
		sh.j. sug‘orishga	4,26	4,31	4,00	3,66	2,90	1,93	0,55	0,50	0,50	0,50	0,45	0,45	0,80	0,90	1,54	1,82	2,10	2,80	29,75
		STE va boshqalar	0,04	0,04	0,04	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,06	0,05	0,04	0,06	0,06	0,06	0,55
Suvni yo'qolishi		sh.j. sug‘orishga	5,2	8,1	12,8	14,7	14,7	15,0	15,8	15,4	16,6	18,4	22,3	24,8	23,3	17,0	12,9	18,8	23,1	25,0	267
Jami tuman bo‘yicha		**jami**	**4,30**	**4,35**	**4,04**	**3,68**	**2,92**	**1,95**	**0,57**	**0,52**	**0,52**	**0,52**	**0,47**	**0,47**	**0,86**	**0,95**	**1,58**	**1,88**	**2,16**	**2,86**	**30,30**
		sh.j. sug‘orishga	**4,26**	**4,31**	**4,00**	**3,66**	**2,90**	**1,93**	**0,55**	**0,50**	**0,50**	**0,50**	**0,45**	**0,45**	**0,80**	**0,90**	**1,54**	**1,82**	**2,10**	**2,80**	**29,75**
		STE va boshqalar	**0,04**	**0,04**	**0,04**	**0,02**	**0,02**	**0,02**	**0,02**	**0,02**	**0,02**	**0,02**	**0,02**	**0,02**	**0,06**	**0,05**	**0,04**	**0,06**	**0,06**	**0,06**	**0,55**

Izoh: Manbalarning suvliligidan hamda ob-havo sharoitidan kelib chiqqan holda Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan cheklangan suv miqdori (limit) ga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining
2024-yil 24-oktabrdagi
VI-150-117-7-105-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Urgut tumaniga 2024-2025-yillardagi nosug‘orish mavsumda sug‘orish va sanoat ehtiyojlari bo‘yicha cheklangan suv (limit)

TAQSIMOTI

m3/sek

T/r	Tumanlar nomi	oktarbr			noyabr			dekabr			yanvar			fevral			mart			Hajmi
		I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	mln.m3
1	Urgut	3,6	3,7	3,4	3,2	2,5	1,7	0,6	0,6	0,5	0,5	0,5	0,5	0,8	0,9	1,4	1,6	1,8	2,4	**30,30**
Suvning yo'qolishi		0,32	0,33	0,31	0,28	0,22	0,15	0,05	0,05	0,05	0,05	0,04	0,04	0,07	0,08	0,12	0,14	0,16	0,22	**2,70**
Jami		**3,94**	**4,01**	**3,75**	**3,43**	**2,74**	**1,87**	**0,62**	**0,60**	**0,59**	**0,59**	**0,55**	**0,54**	**0,88**	**0,94**	**1,51**	**1,76**	**2,01**	**2,64**	**33,00**
Zarafshondan		**3,60**	**3,64**	**3,37**	**3,08**	**2,44**	**1,63**	**0,48**	**0,43**	**0,43**	**0,43**	**0,39**	**0,39**	**0,72**	**0,79**	**1,32**	**1,57**	**1,80**	**2,38**	**28,90**
Soy va buloqlardan		**0,03**	**0,05**	**0,07**	**0,08**	**0,08**	**0,09**	**0,10**	**0,12**	**0,11**	**0,11**	**0,11**	**0,10**	**0,09**	**0,07**	**0,07**	**0,05**	**0,05**	**0,04**	**1,40**
Yer osti suvlaridan																				
Zovurlardan																				

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2024-yil 24-oktabrdagi
VI-150-117-7-105-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Urgut tumanida 2024-2025 yillardagi nosug‘orish mavsumda sug‘orish va sanoat ehtiyojlari bo‘yicha cheklangan suv (limit)

TAQSIMOTI

№	Tuman nomi	oktabr	noyabr	dekabr	yanvar	fevral	mart	hajmi, mlm m3
1	Urgut	10,74	10,27	9,11	7,38	4,81	2,84	30,30
Suvning yo'qolishi		0,96	0,66	0,15	0,14	0,27	0,52	2,7
Jami		**11,70**	**10,93**	**9,26**	**7,52**	**5,08**	**3,36**	**33,00**